



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yil yanvar-fevral

## RAQAMLAR:


- 2020- yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 478,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati 160,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 570,6 ming so‘mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushini oshishiga olib keladi.


2020- yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 478,3 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,6 % ni tashkil etdi.

Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar (29,2 %) tashkil etadi.

## 2020- yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi (jam'i hajmga nisbatan, %)



**2020- yil yanvar-fevral oyida ayrim xizmat turlari hajmining  
taqqoslanishi, mlrd. so‘m**



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida oldingi yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (17,4 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (8,7 mlrd. so‘mga) va moliyaviy xizmatlar (61,2 mlrd. so‘mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar-jami</b>	<b>478,3</b>	<b>115,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	27,8	116,4
Moliyaviy xizmatlar	139,7	160,7
Transport xizmatlari	72,8	102,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>68,5</i>	<i>101,8</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	9,5	102,2
Savdo xizmatlari	129,8	101,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	11,6	101,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	20,4	93,8
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	8,1	125,5
Ijara xizmatlari	10,7	124,7
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	12,9	111,4
Shaxsiy xizmatlar	11,0	102,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8,3	101,6
Boshqa xizmatlar	15,7	96,5

**2020- yil yanvar-fevral oylarida tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>478,3</b>	<b>115,6</b>
<i>shaharlar:</i>		
Guliston sh.	277,1	128,5
Shirin sh.	5,8	106,2
Yangiyer sh.	33,5	105,9
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	18,6	109,5
Guliston	13,9	105,4
Mirzaobod	22,2	108,4
Oqoltin	10,3	105,3
Sardoba	12,3	99,0
Sayxunobod	13,5	64,8
Sirdaryo	53,6	104,9
Xovos	17,5	108,0


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

### **2020- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2020- yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (160,7 %), ijara xizmatlari (124,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (125,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,4 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## 2020- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etdi. Viloyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2020- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 129,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 17,4 mlrd. so'mga oshdi.

### **2020- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %**



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,1 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 5,8 % ni egalladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoxda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 139,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 160,7 % ni tashkil etdi.


### **2020- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Moliyaviy xizmatlar umumiyo hajmida sug'urta va nafaqa ta'mnoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (95,3 %) katta salmoqqa egadir.

2020- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 9,5 mldr. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 102,2 % ni tashkil etdi.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,2 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,8 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lrim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatni yuksaltirishga yordam bermoqda.

2020- yilning yanvar-fevral oylarida ta'lrim sohasidagi xizmatlar hajmi 20,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.


### Ta'lrim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-fevral oylari bilan taqqoslanganda ta'lrim sohasidagi xizmatlarning hajmi 3,2 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmoxda. 2020- yil yanvar-fevral oylarida 570,6 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,4 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 113,5 % qayd etildi.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha  
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, *ming so'm***




Tuman va shaharlar o'rtaida Guliston shahri (3086,4 ming so'm) bilan yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 127,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to‘g’ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (144,9 ming so‘m), Sayhunobod (176,4 ming so‘m) va Xovos (184,6 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o‘sish sur’atlari Guliston shahrida (127,0 %), Boyovut tumanida (107,4 %) va Shirin shahrida (106,2 %) qayd etildi.

### **2020- yil yanvar-fevral oylarida tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatkichlar**



*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

*Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi*

*Tel: (71) 230-86-31*